

**BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIDA KREATIVLIK
QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISHNING KONTSEPTUAL ASOSLARI**

Taniberdiyev Akmal Abdug'aniyevich

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Maxsudova Sohiba Karimkul qizi

Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti

e-mail: abduraimova.sohiba1@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10425612>

Annotatsiya. Ushbu maqolada mualliflar tomonidan boshlang'ich ta'limda kreativ qobiliyatni shakllantirishning mavjud holati, nazariy asoslari va uning mazmuni yoritib berilgan. Shuningdek, bu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativlik salohiyatini rivojlantirishning ahamiyati metodlari va jarayon bilan bog'liq kasbiy hamda pedagogik xususiyatlar haqida fikrlar ilgari surilgan.

Kalit so'z va tushunchalar: kreativlik, kreativ salohiyat, boshlang'ich sinf o'qituvchisi, ijodiy yo'nalganlik, ijodiy qobiliyat.

**CONCEPTUAL FOUNDATIONS OF THE FORMATION OF CREATIVITY IN
FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS**

Abstract. In this article, the authors describe the current situation, theoretical foundations and content of creative ability formation in primary education. Also, in this article, opinions are put forward about the importance of methods and professional and pedagogical features related to the process of developing the creative potential of future elementary school teachers.

Key words and concepts: creativity, creative potential, primary school teacher, creative direction, creative ability.

**КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ТВОРЧЕСКИХ
СПОСОБНОСТЕЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**

Аннотация. В данной статье авторы описывают современное состояние формирования творческих способностей в начальном образовании, теоретические основы и их содержание. Также в данной статье выдвигаются мнения о важности методов и профессионально-педагогических особенностей, связанных с процессом развития творческого потенциала будущих учителей начальной школы.

Ключевые слова и понятия: творчество, творческий потенциал, учитель начальных классов, творческое направление, творческие способности.

KIRISH

Jahon ta'limi taraqqiyotining jadal suratlarda rivojlanib borishi, avvalo, ta'lim jarayonigakreativ hamda innovatsion yondashish kerakligini ma'lum qilmoqda. Rivojlangan xorijiy davlatlarda, xususan AQSH, Germaniya, Kanada, Yaponiya, Rossiya, Koreya kabi mamlakatlarda o'qitish jarayonlarida innovatsion-kreativ yondashuv asos qilib olinmoqda. Shu kabi holatlarni bevosita kuzatgan hamda chuqur tahlil qilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev xalq ta'limi, oliy ta'lim xodimlari bilan 2019-yil 23-avgustda bo'lib o'tgan muloqotda uzluksiz ta'lim tizimida olib borilishi lozim bo'lgan muhim vazifalar haqida fikr yuritdilar va "... bugungi kunda ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarning obro'sini ko'tarish, shu bilan bir qatorda bugun o'qituvchilarning o'zlari ham ta'lim-tarbiya jarayoniga yangicha ijodiy yondashishi lozim"¹, - deya qimmatli fikrlarini bildirdilar. Shuningdek, 2020-yil 24-yanvarda yurtboshimiz Sh. M. Mirziyoyev Oliy majlisga yo'llagan murojaatnomasida ta'lim va tarbiyaning chambarchas bog'liqligini yanada kuchaytirish maqsadida quyidagi fikrlarni bildirdilar: "Sharqona qarashlarimizda ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi. Bu esa bugungi kun o'qituvchisidan katta mas'uliyatni talab qiladi"².

Shunday ekan, o'qituvchilar ta'lim-tarbiya ishlarida uzviy ravishda ishtirok etar ekan, ular o'zlarining faoliyatlarini bugungi kun talablariga hamohang holatda tashkil etishlari maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining umumiy hamda maxsus kompetentsiyalarini egallashlari va faoliyatlari davomida o'z ijodkorlik qobiliyatlarini namoyon qila olishlari lozim.

Asosiy qism. Shaxsning mutaxassis sifatida kasbiy kamol topishi, rivojlanishi o'z mohiyatiga ko'ra jarayon tarzda namoyon bo'ladi. Kasbiy yetuklik inson ontogenezinining muhim davrlari kasbiy kamol topish, rivojlanish g'oyalarining qaror topishi (14-17 yosh)dan boshlanib, kasbiy faoliyatning yakunlanishi (55-60 yosh)gacha bo'lgan jarayonda kechadi. Ijodkor shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o'zgarishining o'zaro mos kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar hamda inson ontogenizi – tug'ilishidan boshlab to umrining oxiriga qadar uzluksizlik, vorisiylikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog'liq. Ma'lumki, kasbiy tajriba bilim, ko'nikma va malakalarning integratsiyasi sifatida aks etadi. Biroq, boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan kasbiy kompetentsiyalar va ijodiy faoliyat ko'nikmalarining o'zlashtirilishi nafaqat amaliy ko'nikma va malakalarning integratsiyasi, mutaxassis sifatida

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq ta'limi va oliy ta'lim tizimi o'qituvchilari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda so'zlagan nutqi. 2019.08.23.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi matni. <http://uza.uz>

faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni, shu bilan birga kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo'lish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarning yetarli darajada o'zlashtirilishi talab etiladi.³

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ qobiliyatini rivojlantirishning umumiy mohiyatini to'liq anglab yetish uchun avvalo, "kreativlik" hamda "kreativ yondashuv" tushunchalarining asl ma'nosini tushunish zarur hisoblanadi. Bu borada jahon olimlarining asarlariga murojaat qilishimiz juda o'rinli bo'ladi. Ken Robinson ta'rifiga ko'ra, "kreativlik – o'z qiymatiga ega original g'oyalar majmui"⁴ sanaladi. Gardnermo'zining tadqiqotlarida bu tushunchani quyidagicha izohlaydi: "kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo'lib, u o'zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma'lum amaliy qiymatga ega bo'lishi lozim"⁵. Emebayl esa o'z nuqtai nazaridan kelib chiqib "kreativlik-muayyan soha bo'yicha o'zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko'nikmalarga ham ega bo'lish demakdir"⁶. Kreativlik tushunchasi (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor) – shaxsning yangi g'oyalarni ishlab chiqishga tayyorligini tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o'tkirlikni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Amerikalik psixolog P.Torrens fikricha, "kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o'zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlikni ifodalaydi"⁷.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativlik salohiyatining mavjud bo'lishi shaxsiy qobiliyatlari hamda kasbiy faoliyatni samarali tashkil etishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, ta'lim jarayonida o'quv va tarbiya faoliyatlarini tashkil etishda noan'anaviy yondashib, yangi g'oyalarni yaratishi, yangicha fikrlashi, o'ziga xosligi, tashabbuskorligini oshirishda yordam

³ Mamatqulova S. R. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7098585>

⁴ Андреев В.И. Педагогика творческого саморазвития. Инновационный курс. – Казань: Изд-во КГУ, 1996. – 566 с

⁵ Вишнякова, Н.Ф. Креативная акмеология. Психология высшего образования / Н.Ф. Вишнякова. – Мн.: Народная асвета, 2007. – 300 с.

⁶ Алейников А.Г. О креативной педагогике / А.Г. Алейников // Вестник высшей школы. – 2009. – №12. – С. 29-34.

⁷ Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 260

beradi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kerativlik sifatlarni ularning talabalik yillaridan boshlab shakllantirish, ta'lim jarayoniga tayyorlab boorish muhi mvazifa hisoblanadi. Xususan keativlik qobiliyatiga ega bo'lgan talabalar pedagogik faoliyatga o'zgacha yondashuv, ijodiy fikrlash, muntazam faollik hamda yangiliklarni o'rganishdan va o'zlari ham yangiliklar yaratishdan charchamaydigan bo'ladilar. Ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganishadi va o'z faoliyatida ularni tadbiq eta oladilar. Kelgusida esa hamkasblari bilan erishilgan pedagogik yutuqlar va tajribalar to'g'risida izchil va doimiy ravishda fikr almashib boradilar. Demak, har bir shaxsda tabiatan kreativlik qobiliyat mavjudligi ma'lum ekan, shaxs o'zidagi kreativlik qobiliyatini qanday namoyon eta oladi? degan haqli savol paydo bo'lishi aniq. Bu borada Patti Drapeau quyidagicha maslahat beradi: "Agarda o'zingizni kreativ emasman deb hisoblasangiz, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman. Aslida, gap sizning ijodkor bo'lganingiz yoki bo'lmaganingizda emas, balki ijodkorlik faoliyatni kreativlik ruhida tashkil etishingiz va yangi g'oyalarni amalda sinashga intilishingizdadir"⁸. Patti Drapeau fikriga ko'ra kreativ fikrlash, avvalo, muayyan bir masala yuzasidan har tomonlama fikrlash hisoblanadi. Har tomonlama fikrlash esa o'qituvchidan o'quv topshirig'i, masalasi va vazifalarini bajarish jarayonida juda ko'plab fikrlarga tayanishni talab qiladi.

Kreativlik salohiyati bilish jarayoniga yo'naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas aloqador. O'qituvchilar tomonidan kasbiy kompetentsiyalarni o'zlashtirish jarayonida ijodkorlik salohiyati an'anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- Tafakkurning tezkorligi;
- Yangi g'oyalarni yaratish qobiliyati;
- Tashabbuskorlik;
- Noaniqlikka toqat qilish;
- Zakovatli bo'lish;
- Muammolarni hal etishga nisbatan noodatiy yondashuv.

XULOSA

Fikrlarimiz so'ngida shuni alohida ta'kidlashimiz lozimki, hozirgi zamonaviy o'qituvchilar o'quv mashg'ulotlarini avvaldan rejalashtirilgan bir qolipdagi shaklidan voz kechgan holatda, o'quvchilarning mantiqiy, ijodiy, mustaqil va tanqidiy tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilgan

⁸ Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 260

mashg'ulotlarni olib borishlari lozim. Jumladan, o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, yangi g'oyalar yaratishga majbur qila olishlari, ta'lim olishga bo'lgan munosabatni ijobiy tomonga o'zgartirish, ularni turli yutuqlarga erishishida rag'batlantirib borishi lozim. Hozirgi kunda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodkor va kreativ bo'lishi bilan bir qatorda, ularning kasbiy faoliyatini kreativlik va ijodkorlik ruhida tashkil etishi, yangi g'oyalarni ta'lim jarayonida sinab ko'rishi ayniqsa muhim omil sanaladi.

Demak, boshlang'ich ta'limda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ salohiyatini rivojlantirishda quyidagi yo'nalishlar bo'yicha harakat qilishni talab qiladi:

- talabalarning ijodiy fikrlash ko'nikmalarini namoyish etishi uchun zarur shart-sharoitni yaratish;
- talabalar tomonidan o'quv fanlarini qiziqish bilan o'zlashtirishga rag'batlantiruvchi strategiyani joriy etish;
- Innovatsion yondashuv va pedagogik masala (muammolarning yechimi)ni topishda ijodiy yondashuvning ustivorligini ta'minlash;
- Belgilangan ta'limiy-tarbiyaviy vazifalarni to'laqonli bajarish orqali kutiladigan natijaga erishish.

Xullas, bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy rivojlanishlari, qobiliyatlarini namoyon eta olishlari, yangicha fikrlashlari ularning kreativlik salohiyatidan dalolat beradi. Ulardagi kreativlik pedagogik mahorat bilan uyg'un holatda rivojlansa, kelgusida xaqiqiy, zamon talablariga mos o'qituvchilar yetishib chiqadi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq ta'limi va oliy ta'lim tizimi o'qituvchilari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda so'zlagan nutqi. 2019.08.23.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi matni. <http://uza.uz>
3. Алейников А.Г. О креативной педагогике / А.Г. Алейников // Вестник высшей школы. - 2009. - №12. - С. 29-34.
4. Андреев В.И. Педагогика творческого саморазвития. Инновационный курс. – Казань: Изд-во КГУ, 1996. – 566 с
5. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 260

6. Mamatqulova S. R. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7098585>
7. Вишнякова, Н.Ф. Креативная акмеология. Психология высшего образования / Н.Ф. Вишнякова. - Мн.: Народная асвета, 2007. - 300 с.
8. Maxsudova, S. (2019). *Boshlang'ich ta'limda integratsiyalashgan darslarni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari.*
9. Maxsudova, S. (2021). *Boshlang'ich sinf matematika darslarida harakatli o'yinlardan foydalanish metodikasi va samarasi.*
10. Maxsudova, S. (2021). *Boshlang'ich sinf matematika darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning samarasi.*
11. Maxsudova, S. (2022). *Boshlang'ich sinf matematika darslarida harakatli o'yinlardan foydalanish.*
12. Maxsudova, S. (2022). *Boshlang'ich sinf matematika darslarida harakatli o'yinlardan foydalanish ahamiyati.*
13. Maxsudova, S. (2023). *Boshlang'ich sinf darslarida xorijiy tajribalardan foydalanishning ahamiyati va samaradorligi (Darsliklar misolida).*
14. Maxsudova, S. (2023). *Boshlang'ich sinf matematika darslarida xorijiy tajribalardan foydalanishning ahamiyati.*
15. Maxsudova, S. (2023). *Priority directions for the formation of the effectiveness of the use of foreign experience in primary grades.*
16. Maxsudova, S., & Omonqulova, F. (2023). BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING IQTIDORINI OSHIRISH UCHUN HARAKATLI O'YINLARDAN FOYDALANISH. *Академические исследования в современной науке*, 2(12), 69-73.
17. Maxsudova, S. (2023). BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. *Models and methods in modern science*, 2(5), 50-53.
18. Maxsudova, S. (2023). *Boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtidorini erta aniqlash va rivojlantirish uchun "Zukko bolajon" kurslari.*
19. Maxsudova, S. (2023). THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF DEVELOPING THE CREATIVITY OF FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS. *Science and innovation*, 2(B11), 540-543.

20. Maxsudova, S. (2023). BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA
XORIJIY MATERIALLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.



MODERN SCIENCE
& RESEARCH